

SHARQ POETIKASIDA RAMZ VA ALLEGORIYANING SHAKLLANISHI

Abdullayeva Soxibaxon Olimbek qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Email abdullayevas191@gmail.com

ORCID 0009-0007-4818-1698

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986080>

Annotatsiya. Mazkur tezis Sharq poetikasida ramz va allegoriyaning tarixiy shakllanish bosqichlari hamda ularning badiiy-estetik funksiyalarini yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda qadimgi hind, forsiy-turkiy va islomiy adabiy manbalar misolida ramz va allegoriyaning axloqiy, falsafiy, diniy hamda ijtimoiy mazmun tashuvchi poetik vosita sifatida shakllanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, jadid adabiyoti va mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida ramz va allegoriyaning ijtimoiy tanqid, milliy ong va falsafiy mushohada ifodasidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Sharq poetikasi, ramz, allegoriya, mumtoz adabiyot, tasavvuf, jadid adabiyoti, poetik tafakkur, majoz.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы формирования символа и аллегии в восточной поэтике, а также их художественно-эстетические функции. На примере древнеиндийских, персидско-тюркских и исламских литературных источников анализируется становление символа и аллегии как поэтических средств, передающих нравственное, философское, религиозное и социальное содержание. Особое внимание уделяется роли символа и аллегии в джадидской литературе и в узбекской литературе периода независимости как средств социального критицизма, национального самосознания и философского осмысления действительности.

Ключевые слова: восточная поэтика, символ, аллегория, классическая литература, суфизм, джадидская литература, поэтическое мышление, метафора.

Abstract. This paper explores the stages of formation of symbol and allegory in Eastern poetics and examines their aesthetic and poetic functions. Drawing on examples from ancient Indian, Persian-Turkic, and Islamic literary traditions, the study analyzes the development of symbol and allegory as artistic devices conveying moral, philosophical, religious, and social meanings. Special attention is given to the role of symbolism in Jadid literature and in Uzbek literature of the independence period as a means of social criticism, national consciousness, and philosophical reflection.

Keywords: Eastern poetics, symbol, allegory, classical literature, Sufism, Jadid literature, poetic thinking, metaphor.

Kirish

Sharq adabiyoti nozik poetik tafakkuri, ma’naviy chuqurligi va ramziy timsollarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ramz va allegoriyalar Sharq mumtoz adabiyotida badiiy bezak vositasi bo‘lish bilan birga, axloqiy, falsafiy, diniy va ijtimoiy mazmuni yetkazuvchi muhim poetik mexanizm sifatida shakllangan.

Sharq adabiyotida allegoriyaning dastlabki namunalari qadimgi hind adabiyotiga mansub “Panchatantra”, “Hitopadesha” hamda “Kalila va Dimna” kabi asarlarda kuzatiladi. Ushbu asarlarda hayvonlar obrazi orqali insoniy fazilat va illatlar allegorik tarzda tasvirlanib, axloqiy xulosalar ilgari surilgan. Bu hol ramz va allegoriyaning dastlab didaktik vazifani bajarganini ko‘rsatadi.

Forsiy-turkiy xalqlarning qadimiy yodgorligi bo‘lgan “Avesto”da ham ramziy tafakkurning ilk unsurlari uchraydi. Ardvisura Anahita, Xaoma kabi timsollar orqali diniy va ijtimoiy qadriyatlar umumlashtirilgan. Islomiy adabiyot rivoji bilan ramziylik Qur’oni Karim matnlari asosida yanada boyidi. Undagi ramziy iboralar va majoziy ifodalar ma’noning ko‘p qatlamli talqiniga yo‘l ochdi.

Ilk o‘rta asr Sharq tafakkurida ramz va allegoriya falsafiy talqin vositasi sifatida Forobiy va Ibn Sino asarlarida muhim o‘rin tutadi. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat va fazilatli inson obrazi ramziy-majoziy shaklda ifodalangan bo‘lsa, Ibn Sinoning “Hayy ibn Yaqzon”, “Risolat ut-tayr” kabi asarlari sof allegorik ruhda yozilgan.

Turkiy adabiyotda ramziy tizimning mukammal namunasini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ko‘rish mumkin. Asardagi Kuntug‘di – adolat, Oyto‘ldi – davlat, O‘gdulmish – aql, O‘zg‘urmish – qanoat timsollari islomiy dunyoviy adabiyotdagi ilk ramziy obrazlar tizimini

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

shakllantirdi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida esa “Qish va yoz” munozarasi orqali yaxshi va yomon insonlar ramziy tarzda tasvirlangan.

Tasavvuf adabiyotida ramz va allegoriya ilohiy ishq va ruhiy kamolot g‘oyalarini ifodalashning asosiy vositasiga aylandi. Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari butunlay allegorik syujetga asoslanib, yetti vodiy orqali insonning ma’naviy yetilish bosqichlarini tasvirlaydi. Alisher Navoiy ijodida ham ramz ilohiy va insoniy ishqni uyg‘unlashtiruvchi estetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

XX asr boshlarida jadid adabiyotida ramz va allegoriya ilohiylikdan ijtimoiylikka yo‘naldi. Jadid adiblari senzura sharoitida ramzlar orqali milliy uyg‘onish, ozodlik va ma’rifat g‘oyalarini yashirin ifodaladilar. “Nur”, “quyosh” ramzlari ilm va taraqqiyot timsoliga aylangan bo‘lsa, “zulmat”, “uyqu” obrazlari jaholatni anglatdi.

Mustaqillikdan keyingi o‘zbek adabiyotida ramz va allegoriya mafkuraviy yukdan xoli, falsafiy-estetik vosita sifatida rivojlandi. Bu davrda ramz individual tafakkur, tarixiy xotira va shaxsiy kechinmalar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lib, zamonaviy poetik tafakkurning muhim unsurlaridan biriga aylandi.

Xulosa

Sharq poetikasida ramz va allegoriya qadimgi didaktik vazifadan boshlab, tasavvufiy-falsafiy va ijtimoiy-tanqidiy mazmun kasb etib, zamonaviy davrda individual va estetik ifoda vositasiga aylangan. Ular Sharq adabiyotining ko‘p qatlamli semantik tizimini shakllantiruvchi asosiy poetik mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/abu-ali-ibn-sino-980-1037-o-zbekiston>
2. Kambarova S. Adabiy ta’limda zamonaviylik, tajriba va motivatsiya. “Nodirabegim” nashriyoti Toshkent – 2021. Xoshimov S. “Abu Nasr Forobiyning ta’lim-tarbiya berishga oid pedagogik va psixologik qarashlari”. “Экономика и социум” №12(91)-1 2021. 668-671-bb
3. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2004
4. Umurzakov R., Uralova D. Ulug‘bek Hamdam nasrida ramziy obrazlar qo‘llanishi. Monografiya. Farg‘ona – 2022.21-b
5. Манзар Абдулхайр. Тимсол тадрижи (XV-XXI аср адабий манбалари мисолида). «Yashil yaroq nashr-matbaa uyi» Toshkent – 2021. 135-б.
6. Тўхлиев Б. Билим-эзгулик йўли.-Ташкент: Фан, 1990.- Б.32-53